

ZAMONAVIY HARBIY TEXNIKALARIMIZNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI
DEVELOPMENT TRENDS OF OUR MODERN MILITARY EQUIPMENT

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchisi
Tog‘ayev Javlonbek Shuhrat o‘g‘li

ANNOTATSIYA : Hozirgi kunda bizning kundan kunga rivojlanib borayotgan milliy armiyamizda juda ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan bir “Avtomobil texnikalarini ta‘mirlash zavodi” hisoblanadi. Bu zavodning vazifasi va bu yerda qilinadigan ishlar haqida qisqacha ma‘lumotlarga ega bo‘lishingiz mumkin. Bundan tashqari Qurolli Kuchlarimiz qanday texnikalar bilan jihozlanganligi haqida ham qisman ma‘lumotlar keltirilgan.

KALITSO‘ZLAR:harbiy,armiya,QurolliKuchlar,avtomobil,texnika,transport,kamaz,rivojlanish,ta‘mirlash,zavod,natija,avtomobilsozlik,tarix,dvigatel, elektrotexnika,zamonaviy,qurollar,snaryadlar

ANNOTATION: Nowadays, many changes are being made in our national army, which is developing day by day. One of them is "Automotive equipment repair plant". You can get a brief information about the function of this factory and what is done here. In addition, some information is provided about the equipment our Armed Forces are equipped with.

KEYWORDS: military, army, Armed Forces, automobile, technology, transport, kamaz, development, repair, factory, result, automobile construction, history, engine, electrical engineering, modern, weapons, shells

ASOSIY QISM

Avtomobilsozlik bugungi kunga kelib eng rivojlangan sohalardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yana boshqa so‘z bilan aytadigan bo‘lsak ilm-fan va texnika taraqqiyoti hamda innovatsion yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etgan jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu yo‘nalishlar rivojlangan davlatlarda yetakchi o‘rinlarni band qilib kelmoqda, multiplikativ sohalarimiz sifatida esa metalurgiya,elektrotexnika, neft-gaz va kimyo sanoati hamda boshqa shu kabi sohalarda bitta ish o‘rniga 9–10 ta ish o‘rni yaratishga majbur qiladi desak adashmagan bo‘lamiz. Yuqorida qayd etilgan jihatlarini anglagan holda, rivojlangan davlatlar o‘rtasida yuqori natijalarni egallash hamda ular darajasiga yetishda biz uchun yangi bo‘lgan milliy texnologiyalarni tadbiq etamiz, bilim va ko‘nikmalarimizni yaratamiz ,yuksaltiramiz va rivojlantiramiz.

Bugungi kun bilan oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston avtomobilsozlik sanoatida jahon bozorida o‘z mavqeyimizga ega bo‘lish yo‘lida ildamlayotgani, hamda oldimizda katta to‘siqlarlar borligidan dalolat beradi. O‘zbekiston muhandislarining ilmiy salohiyatini yuksaltirish hamda sohaga oid texnikalarni yanada rivojlantirishni bugungi kunda davr taqozo etmoqda.

Bizga tarixdan ma‘lumki avtomobillar kashfiyotchilarning birinchi bug‘ mashinasini yaratishlari,rivojlantirishlari, takomillashtirishlari hamda ularning ustida uzoq yillar moboynda tinimsiz ishlar olib borilishi natijasida amalga oshirilgan. Bir necha yillar davomida bug‘ mashinasi ko‘rinishidagi asosini bug‘ mashinasi tashkil etadigan bir qancha o‘ziyurar avtomobillar yaratilgan. Birinchi bug‘ mashinasini 1769 yilda frantsuz harbiy muhandisi Kyuno yaratgan. Bu mashina artilleriya yuklarini tashishga mo‘ljallangan. Bugungi kun bilan solishtiradigan bo‘lsak bizning qurolli kuchlarimizdagi artillerya snaryad va o‘q-dorilarini olib yurish uchun mo‘ljallangan TZMlarimizni aytishimiz mumkin. U o‘zinig bu ikkinchi bug‘ mashinasini 4-5 tonna yuk ko‘tarib

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

yurishga mo'ljallab yaratgan. Bizning texnikalarimiz esa 10-15 tonnalik snaryadlarni bemaolol ko'tarib yurishi mumkin.

XIX-asrning 80-yillariga kelib Amerika, Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa davlatlarida neft qazib olishning keng yo'lga qo'yilishi va neftni qayta ishlash zavodlarining yaratilishi, benzinli yoki dizelli ichki yonuv dvigatellari bilan (ichki yonuv dvigatelining vazifasi – bunday dvigatellarda issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirish jarayoni dvigatelning ichida amalga oshiriladi) jihozlangan avtomobillarning takomillashishiga yetarli zamin yaratgan edi. Hozirgi kunda olimlar bug' mashinasi yoki elektrodvigatel emas, balki ichki yonuv dvigatellaridan ko'proq foydalana boshladilar. Chunki bunday dvigatellar icham, chidamli, tejamli va samaradorligi yuqori hisoblanadi.

Hozirgi kunda bizning kundan kunga rivojlanib borayotgan milliy armiyamizda juda ko'plab o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shulardan bir "Avtomobil texnikalarini ta'mirlash zavodi" hisoblanadi. Ushbu zavodga zamonaviy dastgohlar o'rnatilgan. Zavodda 5 ta sex yo'nalish bo'yicha ta'mirlash ishlari olib boriladi. Zavodda zirhli va harbiy texnikalarga to'laqonli texnik xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud. Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda bunyod etilgan zavod yiliga 1000 ga yaqin harbiy texnikalarni ta'mirlash imkoniyatiga ega.

Hozirgi milliy armiyamiz tizimida olib borilayotgan islohotlar tufayli butun Qurolli Kuchlarimiz tizimidagi jangavor, saf hamda transport avtomobil texnikalarimiz eng zamonaviy jihozlardan bilan jihozlanib yetkazib berilmoqda. Bularga misol qilib KAMAZ avtomobil texnikasini aytishimiz mumkin.



KAMAZ-4326

Qurolli Kuchlarning harbiy va ikki maqsadda foydalaniladigan mahsulotlarga bo'lgan talablarini o'z vaqtida va sifatli bajarish maqsadida 2018-2019 yillarda KamAZ avtomobili shassisida yuk va maxsus avtomobil texnikalarini, harbiy maqsadda foydalaniladigan radioaloqa vositalari, nafas olish organlari himoya vositalarini, oziq-ovqat payoklari va boshqa turdagi harbiy va ikki maqsadda foydalanadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha bir qancha tarmoqlararo loyihalar amalga oshirildi. Bundan tashqari bir qancha texnikalarimiz rekonstruksiya qilinib ulardan BM-21 "Grad" rusumli yalpi o't ochish reaktiv tizimi yangi zamonaviy shassiga o'rnatildi va BTR-70 rusumli

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-2

transportyorga yangi zamonaviy dizel dvigateli, uzatish qutisi o'rnatilib, mobil imkoniyatlari oshirildi. Shuningdek, shaxsiy tarkib himoyasini oshirish maqsadida qo'shimcha zirh va kumulyativ panjara bilan jihozlanibgina qolmasdan T-64 rusumli tankning kuch bo'limi to'liq rekonstruksiya qilinib, zamonaviy, katta quvvatga ega dvigatel va transmissiya agregatlari qo'yildi va yana bitta quvonarli tomoni innovatsiya desak ham bo'ladi. Qurolli Kuchlarimizda eng mashhur texnikalarimizdan biri "Gaz-66" rusumli avtomobillariga ISUZU dvigatellari va uzatish qutilarini o'rnatgan holda modernizatsiya qilish yo'lga qo'yildi. Bu ularning harakatchanlik va mobil imkoniyatlarini oshiradi va bu tizimlar amaliy sinovlardan muvaffaqiyatli o'tkazildi.



BTR-70 rusumli transportyor



BM-21 “Grad”

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi taxlikali zamonda biz qurolli kuchlarimizga e’tibor qaratmasak va uni rivojlantirish yo‘lida hech qanday ishlar qilmasak bizning yutqazib qo‘yishimiz hech gap emas. Shuning uchun bizning Yurt Boshimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan bu borada juda katta islohotlar o‘tkazilib armiyamizning rivojlanishi uchun tinimsiz ishlar olib bormoqdalar. Buning yaqqol misoli sifatida yuqorida qayd etilgan fikr mulohazalarni aytishim mumkin. Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz ham bejizga “ agar seng o‘z armiyangni boqmasang kuni kelib boshqaning armiyasini boqishga majbur bo‘lasan” deb aytmaganlar. Bizning Qurolli kuchlarimizdagi avtomobil texnikalarimiz balki zirxli texnikalarimiz ham yangilab berilyotgan ekan buning tagida juda katta say xarakterlar va mehnat yotadi. Shunday ekan biz bu texnikalarimizni uzoq umr ko‘rishi uchun texnikalarimizni to‘g‘ri ekspluatatsiya qilishimiz va ulardan to‘g‘ri foydalanishimiz kerak. Bu texnikalardan foydalanishda yoshlarga to‘g‘ri bilim va yo‘nalish berishimiz kerak va ularni muntazam nazorat qilib turishimiz lozim. Bundan tashqari muhtaram prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev hamda Mudofa Vazirimiz bizga milliy armiyamizni nufuzini va uning jahondagi o‘rnini yanada yuqori o‘rinlarga ko‘tarishimizga juda ishonch bildirmoqdalar. Biz harbiylar bizga bildirilgan bunday katta ishonchni oqlashimizda tish tirnog‘imiz bilan kurashmog‘imiz kerak. Biz kelajakda milliy armiyamizni boshqa qudratli davlatlarning armiyasidan ham kuchliroq qilishimiz kerak bunda esa albatta har bir harbiy xizmatchi vijdonan va sidqidildan xizmat qilmog‘i darkor.

Men harbiy xizmatchi sifatida shuni aytishim mumkinki biz harbiylar o‘zimizdan keyingi kelajak avlodga ya‘ni yosh kadrlarga o‘zimizdagi bor bilim va ko‘nikmalarimizni o‘rgatishimiz kerak. Shunda bizning milliy armiyamiz rivojlanib boradi. Shu borada shuni ham aytishimiz joizki biz o‘zbek xalqi agar birlashsak har qanday to‘siqni zabt etib eng yuqori marralarga chiqishimizga ishonchim komildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Noyberger, S. A. Chet el piyodalarining jangovar transport vositalarining asosiy funktsiyalari va ularning ahamiyatini baholash / S. A. Neuberger, V. K. Islomov.
2. Milliy armiyamiz – Yangi O‘zbekistonning mustahkam qalqoni - IIAU
3. www.kun.uz.
4. <https://www.defindustry.uz.oboronprom.uz>
5. <https://daryo.uz/k/2018/08/11/kamaz>
6. Avtomobillarning tuzulishi, texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash. O.u. Salimov 2001-yil. Toshkent-“ILM ZIYO”-2006 yil

